

“Standart elektro texnika” MChJga tashrif

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5847-sonli Farmonining 3-bob 5-bo'limga, ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari va talabalar amaliyotini samarali tashkil etish, hamda institutimizning 2019 yil 30 sentyabrdagi 6-majlis bayonining 12-bandiga asosan ya'ni Institutda talabalarni 5+1 (besh kun institutda va bir kun ishlab chiqarishda) tizimi asosida o'qitishni joriy etish maqsadida, 5430500-Qishloq xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavr ta'lif yo'nalishi 2 kurs talabalarini, 2020 yilning 4 yanvar kuni “ET va EJF” kafedrasi dotsenti O'. Xaliquzzazov va assistent N.Markaevlar 201, 202-guruhlarni “STANDART ELEKTRO TEXNIKA” MChJga olib borib “Elektr xavfsizligi va elektr uskunalarini montaji” fanlaridan mutaxassislar bilan birlashtirilgan dars mashg'ulotlari olib borildi. Talabalar uchun bu dars mashg'ulotlari juda qiziqarli va mazmunli o'tdi. Talabalar o'zlari qiziqqan savollariga mutaxassislardan yetarlicha javoblar olishdi.

Institut matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov